MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

NOMODDIY MADANIY MEROSNI AVLODLARGA YETKAZISHDA FESTIVALLARNING AHAMIYATI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nilufar Karimova,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy merosilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi, mustaqil tadqiqotchi
nilufarkarimova6006t0@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, targ'ib qilish va uni avlodlarga yetkazishda festivallarning ahamiyati yoritilgan. Unda an'anaviy ustoz-shogird tizimi bilan bir qatorda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati hamda maqom, baxshichilik, milliy raqs va folklor san'atiga bag'ishlangan xalqaro festivallarning milliy madaniyatni saqlash va xalqaro miqyosda targ'ib etishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Festivallarni an'ana va innovatsiya uyg'unligi asosida rivojlantirish nomoddiy madaniy merosning barqarorligini ta'minlashning muhim omili ekanligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *nomoddiy madaniy meros, festival, milliy madaniyat, madaniy qadriyat, an'ana, ustoz-shogird, avlodlar vorisiyligi, maqom, baxshichilik, folklor, milliy raqs, Lazgi, raqamli texnologiyalar, madaniy diplomatiya, YUNESKO.*

Аннотация: *В статье освещается значение фестивалей в сохранении, популяризации и передаче нематериального культурного наследия последующим поколениям. Наряду с традиционной системой «устоз-шогирд» («учитель–ученик») анализируются возможности использования современных цифровых технологий. Раскрывается роль государственной политики Узбекистана в развитии нематериального культурного наследия, а также международных фестивалей, посвящённых искусству макома, бахши, национального танца и фольклора, в сохранении национальной культуры и её популяризации на международном уровне. Обосновывается, что развитие фестивалей на основе гармоничного сочетания традиций и инноваций является важным фактором обеспечения устойчивости нематериального культурного наследия.*

Ключевые слова: *нематериальное культурное наследие, фестиваль, национальная культура, культурные ценности, традиция, система «учитель–ученик», преемственность поколений, маком, искусство бахши, фольклор, национальный танец, Лазги, цифровые технологии, культурная дипломатия, ЮНЕСКО.*

Abstract: *The article highlights the importance of festivals in preserving, promoting, and transmitting intangible cultural heritage to future generations. Along with the traditional ustoz-shogird (master-apprentice) system, the possibilities of using modern digital technologies are analyzed. The article examines the role of Uzbekistan's state policy in the development of intangible cultural heritage, as well as the role of international festivals dedicated to maqom, bakhshi art, national dance, and folklore in preserving national culture and promoting it at the international level. It is substantiated that developing festivals through a harmonious combination of tradition and innovation is an important factor in ensuring the sustainability of intangible cultural heritage.*

Keywords: *intangible cultural heritage, festival, national culture, cultural values, tradition, master-apprentice system, intergenerational continuity, maqom, bakhshi art, folklore, national dance, Lazgi, digital technologies, cultural diplomacy, UNESCO.*

Milliy madaniyat har bir xalqning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy dunyosi, dunyoqarashi, urf-odatlari va turmush tarzini o‘zida aks ettiruvchi muhim qadriyatlar tizimidir. Milliy madaniyatning barqarorligi va uzluksizligi uning moddiy va nomoddiy tarkibiy qismlarini asrab-avaylash, o‘rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish bilan bevosita bog‘liq.

Nomoddiy madaniy meros tushunchasi xalqning avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bilim, ko‘nikma, urf-odat, marosim, og‘zaki ijod, musiqa, raqs, hunarmandchilik va boshqa madaniy tajribalarini qamrab oladi. U insonlarning faoliyati, ijrosi, xotirasi va amaliy tajribasi orqali yashaydi.

Shu sababli nomoddiy madaniy merosni saqlash uni faqat hujjatlashtirish yoki arxivlashtirish bilan cheklanmasligi lozim. Uning eng muhim xususiyati avlodlar o‘rtasidagi madaniy vorisiylikni ta’minlashdir. ya’ni katta avlod tomonidan yaratilgan va saqlab kelinayotgan madaniy tajriba yosh avlod tomonidan o‘zlashtirilishi, amalda qo‘llanilishi va zamon talablari asosida rivojlantirilishi zarur.

Biroq ayrim milliy urf-odatlar va an’analarning unutilishi, yosh avlodning an’anaviy madaniy muhitdan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan nomoddiy madaniy merosni zamonaviy usullarda targ‘ib qilish va uni yoshlar hayotiga yaqinlashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda festivallar alohida ahamiyat kasb etadi. Festivallar milliy musiqa, raqs, folklor, baxshichilik, maqom, hunarmandchilik va boshqa an’anaviy san’at turlarini keng jamoatchilikka namoyish qilish bilan birga, ularning ijrochilari va meros tashuvchilarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni ushbu jarayonga jalb qilish hamda milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni asrash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish davlat madaniy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada keyingi yillarda bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori milliy maqom san’atini saqlash, ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilish va rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘ldi. Unda maqom san’atining ijro an’analarini saqlash, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va “ustoz-shogird” an’anasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan.

2018-yil 28-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror esa, milliy madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Unda milliy madaniy merosni asrash, xalq ijodiyoti va san’atini rivojlantirish, madaniy tadbirlar va xalqaro festivallarning ahamiyatini oshirish kabi vazifalar belgilanganini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaror baxshichilik va dostonchilik san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, uning noyob namunalarini saqlash va yosh avlodga yetkazish uchun muhim imkoniyat yaratdi.

2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror esa baxshichilik san’atini ilmiy o‘rganish, ijodiy maktablarni rivojlantirish, ustoz-shogird an’anasini davom ettirish va yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash kabi imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Nomoddiy madaniy merosni rivojlantirish sohasidagi muhim hujjatlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-son qaroridir. Mazkur qaror nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va ilmiy o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish, uning namunalarini hujjatlashtirish va keng targ‘ib qilishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Ushbu huquqiy asoslardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosga faqat o‘tmishdan qolgan madaniy boylik sifatida emas, balki zamonaviy jamiyatning ma’naviy va madaniy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim resurs sifatida yondashilmoqda. Uning yashovchanligi avlodlar o‘rtasida uzluksiz ravishda uzatilishiga bog‘liq. Xalqning milliy musiqa, raqs, og‘zaki ijod, hunarmandchilik, marosim va urf-odatlari bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tishi jarayonida milliy xotira bo‘lib saqlanib qoladi.

An’anaviy madaniy merosni yetkazishning eng samarali shakllaridan biri “ustoz-shogird” tizimidir. Unda ustoz nafaqat o‘z kasbiy mahoratini, balki ijodiy tafakkur, estetik did, odob-axloq va milliy qadriyatlarni ham shogirdiga o‘rgatadi. Ayniqsa, maqom, baxshichilik, milliy raqs, xalq cholg‘ulari va hunarmandchilik sohalarida ustoz-shogird an’anasi muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali bilim kitob yoki nazariy ma’lumot shaklidagina emas, balki bevosita amaliy jarayon orqali o‘zlashtiriladi.

Oila va mahalla ham nomoddiy madaniy merosni saqlashning muhim ijtimoiy muhiti hisoblanadi. Milliy bayramlar, to‘ylar, marosimlar, xalq sayillari va oilaviy tadbirlar jarayonida yoshlar an’anaviy madaniyat namunalari bilan bevosita tanishadi. Shu jihatdan festivallar an’anaviy madaniy muhit bilan zamonaviy jamiyat o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi vosita vazifasini bajaradi.

Nomoddiy madaniy merosni targ‘ib qilishda festivallarning bir qator muhim vazifalari mavjud.

Birinchidan, festivallar milliy madaniy meros namunalarini keng jamoatchilikka namoyish etish imkonini beradi. Milliy musiqa, raqs, folklor, baxshichilik, maqom va hunarmandchilik kabi yo‘nalishlar maxsus dasturlar, tanlovlar, konsertlar va ko‘rgazmalar orqali namoyon etiladi.

Ikkinchidan, festivallar meros tashuvchilarini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim maydon hisoblanadi. Baxshi, maqom ijrochisi, xalq hunarmandlari, raqs ustalari va folklor jamoalari o‘z mahoratini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, festivallar yoshlarni milliy madaniy merosga jalb qilishning samarali vositasidir. Tanlovlar, master-klasslar, ijodiy uchrashuvlar va ustoz-shogird loyihalari orqali yoshlar an’anaviy san’at turlarini bevosita o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, festivallar milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkonini kengaytiradi. Xalqaro festivallarda xorijiy san’atkorlar, tadqiqotchilar va madaniyat vakillarining ishtiroki madaniy muloqotni rivojlantiradi.

O‘zbekistonda tashkil etilayotgan xalqaro festivallar milliy nomoddiy madaniy merosni targ‘ib qilishning samarali shakllaridan biri hisoblanadi.

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali ham turli xalqlar musiqa san’ati o‘rtasidagi madaniy muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Festival doirasida milliy musiqa an’analari namoyish etilishi O‘zbekistonning boy musiqiy merosini jahon auditoriyasiga tanitish imkonini berayotgan bo‘lsa, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivali esa turli xalqlarning folklor an’analari, milliy musiqa va raqs san’ati o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari “Baxshichilik san’ati” hamda “Lazgi” xalqaro raqs festivallari YUNESKO Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi ham uning xalqaro madaniy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shu kabi festivallar O‘zbekistonning milliy madaniy merosini jahon madaniy makoniga olib chiqilmoqda va mamlakatning madaniy imiji mustahkamlanmoqda.

Nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash ham bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy yondashuv, avvalo, merosning asl ijro uslubi, milliy liboslar, cholg‘u asboblari, marosimlar, urf-odatlar va ustoz-shogird tizimini saqlashga asoslanadi.

Zamonaviy yondashuv esa ushbu merosni yangi texnologiyalar va kommunikatsiya vositalari orqali keng auditoriyaga yetkazishdir.

Bugun yoshlar orasida Instagram, YouTube, Telegram, TikTok kabi raqamli platformalardan foydalanish keng tarqalganini hisobga olgan holda milliy madaniy kontentni zamonaviy vizual formatlarda taqdim etish muhimdir.

Biroq zamonaviylashtirish jarayonida milliy merosning asl mazmuni va xususiyatlarini yo‘qotib qo‘ymaslik lozim. Innovatsion texnologiyalar an’ananing o‘rnini bosmasligi, balki uni saqlash, hujjatlashtirish va ommalashtirish vositasiga aylanishi kerak.

Nomoddiy madaniy merosni yosh avlodlarga yetkazishning asosiy maqsadlaridan biri ularda milliy o‘zlikni anglash va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishdir.

Festivallar yoshlarni madaniy jarayonlarning passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylantirish imkonini beradi. Yoshlarning tanlovlar, ijodiy loyihalar, master-klasslar, folklor jamoalari va ustoz-shogird dasturlarida ishtirok etishi ularning milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira, vatanparvarlik, ijodkorlik, jamoaviylik va madaniy mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Shu bilan birga, festivallar yosh san’atkorlarga o‘z ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, tajribali ustozlardan bilim olish va xalqaro madaniy muhitga chiqish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi nomoddiy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish uchun yangi imkoniyatlar yo‘lini ochmoqda. Unda nomoddiy madaniy meros namunalarini audio va video shaklda qayd etish, elektron katalog va arxivlar yaratish, meros tashuvchilari haqida ma’lumotlar bazasini shakllantirish va festival materiallarini raqamli platformalarda saqlash kelajak avlod uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa kam tarqalgan yoki yo‘qolib ketish xavfi mavjud bo‘lgan an’analar uchun muhimdir. Chunki muayyan hududda saqlanib qolgan ijro uslubi, qo‘shiq, raqs yoki

hunarmandchilik usulini audio-video shaklda qayd etish uning keyingi avlodlarga yetkazilishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son qaror nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish va zamonaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilishga qaratilgan hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, nomoddiy madaniy meros xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va ma’naviy tajribasini saqlab qoluvchi muhim madaniy boylikdir. Uning kelgusi avlodlarga yetkazilishi milliy madaniyatning uzluksizligi va barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir.

Festivallar esa nomoddiy madaniy merosni saqlash, namoyish etish, targ‘ib qilish va avlodlar o‘rtasida uzatishning samarali shakli hisoblanadi. Ular orqali milliy musiqa, maqom, baxshichilik, raqs, folklor, hunarmandchilik va boshqa madaniy an’analar keng jamoatchilikka yetkaziladi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda qabul qilingan qarorlar milliy madaniyat va nomoddiy madaniy merosni saqlash hamda rivojlantirish uchun muhim huquqiy va tashkiliy asos yaratdi.

Demak, festivallarning kelajakdagi vazifasi faqat milliy san’at namunalarini namoyish etish bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim, targ‘ibot, ilmiy tadqiqot, ustoz-shogird an’anasini rivojlantirish, raqamlashtirish, madaniy turizm va xalqaro madaniy muloqotni birlashtiruvchi kompleks madaniy maydonga aylanishi lozim. Bu esa nafaqat milliy madaniyatimizni asrab-avaylash, balki O‘zbekistonning jahon madaniy makonidagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3990-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 371-son qarori.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. Mahmudov T. Milliy ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
9. Qosimov B. Madaniyatshunoslik. – Toshkent: Fan, 2004.
10. Abdullayev A. O‘zbek xalq an’analari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.
11. UNESCO. Intangible Cultural Heritage Lists – Uzbekistan.